

ISH SHAROITINI VA MEHNAT MUHOFAZASI HOLATINI YAXSHILASH
TADBIRLARINING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.

Yuldoshev Shaxboz Xoshimjon o'g'li

Namangan muhandislik qurilish instituti NamMQI O'qituvchisi:

Shaxbozyuldoshev4383@gmail.com

Isaboyeva Dilnoza Saxodaliyevna

NamMQI O'qituvchisi: Dilnozaisaboyeva103@gmail.com

Annatsiya: *Mehnat muhofazasi - insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo'llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika chora tadbirlari belgilab qo'yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog'lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Mehnat jarayoni, sanitariya-gigiyena, mehnat xavfsizligi*

Аннотация: *Охрана труда – мероприятия, направленные на сохранение безопасности, здоровья и трудоспособности человека в трудовом процессе. Социально-экономические, организационные, технические, санитарно-гигиенические, лечебно-профилактические мероприятия, применяемые в трудовом процессе, определяются нормативными документами. Задачами охраны труда являются обеспечение безопасности, здоровья и трудоспособности работающего человека, создание здоровых условий труда, предупреждение риска профессиональных заболеваний, предотвращение травматизма на производстве.*

Ключевые слова: *Трудовой процесс, санитария и гигиена, безопасность труда.*

Annotation: *Labor protection - measures aimed at maintaining the safety, health and working ability of a person in the labor process. Social-economic, organizational, technical, sanitary-hygienic, treatment-prophylactic measures used in the labor process are defined in the legal documents. The tasks of labor protection are to protect the safety, health, and ability to work of the working person, to create healthy working conditions, to prevent the risk of occupational diseases, and to prevent injuries during production.*

Key words: *Labor process, sanitation and hygiene, labor safety*

O'zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishlash yuzasidan fuqarolarning huquqlari Konstitutsiyada (37-modda) mustahkamlanib qo'yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy kafolatni amalda ro'yobga chiqarilishiga qaratilgan aniq chora tadbirlar O'zbekiston Respublikasi ning Mehnat kodeksida, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun (1993-yil 6-may)da, boshqa bir qator qonunlar va qonun osti normativ hujjatlarida belgilangan. O'zbekistonda Mehnat muhofazasi uchun katta moliyaviy mablag'lar ajratiladi va

o'zlashtiriladi. Sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitida mehnat qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy mehnat huquqlaridan bo'lib hisoblanadi. Mehnat muhofazasiga oid talablar va standartlar Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun talablari asosida ishlab chiqariladigan korxonalar va tashkilotlarning ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomalari, tarmoq yoki mintaqaviy jamoa kelishuvlari, korxonalarining boshqa ichki normativ huquqiy hujjatlarida, muayyan soha, kasb, ish joylariga oid bo'lgan Mehnat muhofazasi standartlarida belgilab qo'yiladi. Mulkchilik shakli va xo'jalik yuritish usulidan qat'iy nazar barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'z xodimlari uchun sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratishi, xavfsizlik texnikasi choralari ko'rishi, mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini tashkil etishi, boshqa tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirishi shart.

Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi maxsus davlat organlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib boriladi. Qonunlarga, shu jumladan, Mehnat muhofazasiga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar umumiy nazorat olib boradi. Mehnat muhofazasi haqidagi qonun talablarini buzgan korxonalariga moliyaviy-iqtisodiy jazo choralari, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan esa institutizomiy, ma'muriy-huquqiy, jinoiy javobgarliklar qo'llanishi, ular aybi bilan yetkazilgan moddiy zararlarni qoplantirilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda qishloq aholisining ish bilan bandligini ta'minlash konsepsiyasi 2017-2021-yillarda respublikamizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi talablariga mos maqsad va vazifalarni belgilab olishdan iboratdir. Bunday yondashuvning markaziga uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun xos bo'lgan obyektiv jarayonlarni hisobga oluvchi ish bilan ta'minlashning shakllanishi qo'yiladi. Bu, o'z navbatida, muayyan davr mobaynidagi qo'yilgan maqsadlarga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik ijtimoiy rivojlanishning har bir bosqichiga xos turli ko'rinish va shakllarda namoyon bo'ladigan o'ziga xos hodisadir.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida mehnat samaradorligining ortishiga qarab, aholining mehnat bilan bandlik darajasi mamlakat bo'yicha pasayish tendensiyasiga ega. Yaqin kelajakda respublikamizda ish bilan bandlikning rivojlanish xususiyatlari ana shunday kechadi. Bu yerda yuqori samarali iqtisodiyot nisbatan kamroq miqdordagi xodimlarga ehtiyoj sezadi, shu bilan birga, aholining ishchi o'rinlariga bo'lgan ehtiyoji ham biroz kamayadi, chunki mehnat bilan ijtimoiy foydali bandlikning boshqa sohalariga qiziqish ortadi. Bu holat qishloq joylarda ham o'z aksini topmoqda.

Qishloq joylarda ishchi kuchiga talab va taklifni muvofiqlashtirishning ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlari quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- ishhaqining davlat siyosatini shakllantirish, talab, taklif va ishchi kuchining takror ishlab chiqarish bahosini hisobga olgan holda, uning tuzatish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- iqtisodiy faol aholini, asosan, qishloq yoshlarini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini tashkil qilish;
- uy-joy bozorini shakllantirish va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish choralari hisobidan ishchi kuchi harakatchanligini oshirish uchun sharoitlarni yaratish;

- ishchi kuchiga talabni (ish o'rinlari taklifini) rag'batlantirish, qishloq hududlarining xususiyatlariga xos investitsiyalar jozibadorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratishda tijorat banklarining imtiyozli kreditlarini joriy qilish va uning asoslanganligini ta'minlash;

- qishloq joylarida noqishloq xo'jaligi ish o'rinlarini yaratish bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashning intensiv omillaridan keng foydalanish;

- eng maqbul demografik siyosatni, migratsion siyosatni rag'batlantirish, mehnat muhofazasi choralari shakllantirish orqali ishchi kuchi taklifini eng maqbul darajaga yetkazish.

Yuqorida keltirilgan ish bilan bandlikka, ishsizlikka ta'sir qiluvchi mavjud vositalar qishloq mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini keng darajada aks ettiradi. Shahar va qishloq mehnat bozorlarini tartibga solish usullari va shakllarida muayyan o'xshashliklar borligiga qaramasdan, qishloq mehnat bozori o'ziga xos jihatlarga ega.

Hududiy siyosat hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlar qishloq joylarida aholi ish bilan bandligini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi, shunga binoan, qishloqda sanoat tarmoqlarini, xizmat ko'rsatish sohasi, turizm va xalq hunarmandchiligini rivojlantirish yo'li orqali qishloq xo'jaligidan bo'shab ketayotgan ishchilarga yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu bilan ikki masala yechilishi kuzatilmoqda:

birinchidan, oqilona ish bilan bandlikni qo'llab-quvvatlash va ishsizlik bilan kurashish;

ikkinchidan, qishloqda demografik bosimga va xalq xo'jaligi tizimida uning funksiyalari kengayishiga yo'l qo'ymaslik. Undan tashqari, ilmiy-texnik taraqqiyot va mehnat unumdorligining oshishi ta'sirida qishloq xo'jaligidan siqib chiqarilayotgan agrar ishchilarni qayta kasbga o'qitish uchun milliy va hududiy dasturlarda mablag' ajratish nazarda tutiladi.

Ish bilan bandlikning moslashuvchanligi muammosida asosiy jihat - bu mehnat turining tanlash ixtiyoriyligi va mehnatni kamroq vaqt ichida ishlab, durustgina ishhaqi olish imkonini beradigan qilib tashkil etishdir. Hozircha bozor vositalarining to'liq ishlashiga erishilmagan ekan, davlatning muqobil tartiblarini rivojlantirishga ko'mak berishini kuchaytirish zarur.

Hozirgi kunda ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari - oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi tadbirkorlik, kasanachilik, ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari, xizmat ko'rsatish va qoramolchilik kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanish aholini ish bilan ta'minlashning asosiy yo'llaridandir.

Qishloq joylarida aholining ish bilan bandlik muammolarini yechishda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning hamma hududiy ustuvorliklarini jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur.

Birinchi navbatda, yer munosabatlari istiqbollari, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari, iqtisodiy munosabatlar, boshqarish tizimi va boshqa elementlar bilan bir qatorda to'laqonli bo'g'in sifatida ushbu muammoni qishloqlarni hududiy rivojlanish konsepsiyasiga va istiqbollashtirish tizimiga kiritishni talab qiladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa tarmoqlarni ishlab chiqarish hajmi, daromadlar boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liq hududiy-maqсадli va tarmoq dasturlariga hamda mamlakat hukumati tomonidan tayyorlanayotgan byudjet rejasi va istiqboldagi strategik dasturlarga ish bilan bandlikning hududiy maqsadli ko'rsatkichlarini kiritishni hisobga olish zarur. Bunda qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy, iqtisodiy mexanizmlarining usullari va vositalari o'zgaradi.

Qishloq aholisining ish bilan bandligini ta'minlashda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish va ishchi kuchi samarali taklifini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashishda ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlar asosiy vosita hisoblanadi. Qishloq joylarida aholini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari elementlarining o'zaro munosabatlarini o'rganish nafaqat mantiqiy-funksional, balki mazkur mexanizmning asosiy xususiyatlarini to'liq ochishni ta'minlaydi[3].

Qishloqda aholini ish bilan ta'minlash siyosatining ustuvor yo'nalishlari, maqsadlari bilan qishloq xo'jaligi, sanoat va boshqa tarmoqlarda moliya-kredit, tarkibiy, investitsion va tashqi iqtisodiy siyosatning muvofiqligi nazarda tutiladi. Bunda, birinchi navbatda, mahsulotlar sotib olishning tashkiliy masalalari va oziq-ovqat sohasidagi intervensiyalar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi va oziq-ovqat importini tartibga solish nazarda tutiladi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi vazifalarni qisqa yoki o'rta muddatli rejalashtirishning elementiga mos ravishda taktik ma'noga ega. Taktik vazifalar strategik maqsadlar doirasida amalga oshiriladi.

Ko'p hollarda bir vazifa boshqalariga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshmaydi. Shuningdek, mehnat bozorini tartibga solish mexanizmi o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishi, tartibga solishning aniq usullarini tanlash, mehnat bozori konyunkturasidan kelib chiqqan holda oldindan mo'ljallangan masalalarning yechilishida ustuvorlikni ta'minlashdan iborat.

Aholini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi o'zining xususiyatlariga ko'ra ishchi kuchiga talab va taklifni shakllantiruvchi elementlar majmuasidan iborat bo'ladi. Aholining ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi – bu ishchi kuchiga talab va taklif nisbatlariga muayyan ta'sir ko'rsatuvchi, uni mazmunan to'ldiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy shakllar va omillarni o'z ichiga oluvchi elementlar mujmuasidir.

Qishloq joylarida ishchi kuchiga talabni oshirishning, ya'ni yangi ish joylarini yaratishning iqtisodiy mexanizmini tartibga solish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi:

- investitsion faollikni rag'batlantirish. Imtiyozli kreditlash tizimidan foydalangan holda ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha rag'batlantirishni amalga oshirish; iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga yo'naltirilgan kreditlar foiz stavkasini optimal o'rnatish va kreditlash bo'yicha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish; kapital quyilmalar manbasi sifatida amortizatsion siyosatni o'tkazish rolini oshirish; amortizatsion ajratmalardan investitsion yo'nalishda to'liq foydalanishni ta'minlash; xorijiy kapital va aholi jamg'armalarini investitsion sohaga jalb qilish imkoniyatlarini rag'batlantirish;

- faol tarkibiy siyosatni va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlash. Ish bilan bandlik jarayonlarini takomillashtirish talablarini hisobga olgan holda texnik-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbollarini ishlab chiqish; davlat kafolatlaridan foydalangan holda iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari doirasida loyihalarni imtiyozli kreditlash; iqtisodiy jihatdan nufuzli ish o'rinlarini yaratishga ko'maklashuvchi investitsion va ilmiy-texnikaviy davlat dasturlarini amalga oshirishni faollashtirish; raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega hisoblangan moliya-sanoat guruhlarida fan sig'imi yuqori texnologiyalar asosida bo'lgan

innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish; yirik moliya-ishlab chiqarish tuzilmalarida moliyaviy kapitalni ta'minlash bo'yicha integratsiyani yaratish;

- yalpi talabni rag'batlantirish. Korxonalar tomonidan aylanma mablag'larning yo'qotilishi va ishlab chiqarish quvvatining past darajasi sharoitida davlat buyurtmalarini faollashtirish asosida ham ishlab chiqaruvchilarni, ham iste'molchilarni himoyalash bo'yicha milliy mahsulotlarimizga yalpi talabni rag'batlantirish; iste'molchilar talabini rag'batlantirish uchun mehnat bahosini, ya'ni real ishhaqi miqdorini oshirish zarur. Bunga ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish hamda yalpi daromadni taqsimlash jarayonida mehnatga haq to'lash ulushining ortishi asosida erishish mumkin. Moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlovchilar mehnat haqi bilan byudjet sohasida ishlovchilarning ta'rif setkalari o'rtasida muvofiqlikni ta'minlash orqali turli tarmoq ishchilari mehnatiga haq to'lashning miqdoriy farqini qisqartirish evaziga mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, daromadlarning taqsimlanishi bo'yicha aholi o'rtasida tabaqalanishni qisqartirish;

- hududiy siyosatni takomillashtirish. Qayta taqsimlash jarayonlarini optimallashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish yo'li bilan dotatsiyaga tushgan hududlarni qisqartirish zarur. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini tenglashtirishga va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Davlatning ish bilan bandlik siyosati respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va uning rivojlanishi bo'yicha ish bilan bandlik muammolarini yechishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning rivojlanish davriga muvofiq, ishchi kuchini iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari hamda ish bilan bandlik ko'rinishlari bo'yicha qayta taqsimlashda ijtimoiy jihatdan muvofiq ish bilan bandlik darajasini ta'minlashga yo'naltirilishi zarur.

Qishloq aholisining oqilona ish bilan bandligini ta'minlashning takomillashtirilgan yangi mexanizmi quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi; yollanma ishchi kuchiga mehnat haqining (narxining) eng past miqdorini aholi jonboshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol byudjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, pensionerlar, ko'p bolalik ayollar va nogironlarning ish bilan bandligini oshirishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va kasbiy harakatchanligini oshirish, mehnat bozori infratuzilmasining samarali rivojlanishini ta'minlash va boshqalar.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu orqali aholi daromadlari hamda turmush darajasini yuksaltirish, aholining oqilona ish bilan bandlik darajasini oshirish ko'p jihatdan ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish omillariga bog'liqdir.

Bu holat mamlakatimiz aholisining ko'pchiligi istiqomat qiladigan qishloq joylarida mehnat bozorining ta'sirida malakali kadrlarga bo'lgan talabning ortib borishida, ikkinchidan, mamlakatning barcha hududlarida ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllari - xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, oilaviy biznes, servis va xizmat ko'rsatish sohaslarining jadal rivojlanayotgani natijasida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida qishloq joylarida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish ijtimoiy-mehnat munosabatlarining amalga oshirilishida nazariy va amaliy jihatdan eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish qishloq mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi sifatini oshirishga, milliy daromad o'sishiga va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi.

Ishchi kuchining raqobatbardoshlik parametrlari, eng avvalo, ish beruvchining jamiyat va mintaqa rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy tarkibining vujudga kelgan darajasi bilan belgilanadi. Raqobatbardoshlikni baholash uchun ish beruvchining talabini aniqlash lozim. Shuning uchun qishloq joylarida ishchi kuchi sifat tarkibini takomillashtirish asosida ish joylarining samaradorligini ham ta'minlash zarur.

Raqobat ishchi kuchi sifat belgilarining shakllanishida katta ahamiyatga. Shundan kelib chiqqan holda, qishloq joylarida kadrlar tayyorlash sifati, raqobatbardoshligini oshirish quyidagi tadbirlarni o'z ichiga olishi zarur:

- "Aholini ish bilan ta'minlash hududiy Dasturi"ni rejalashtirish jarayonida kelajakdagi potensial ishchi kuchi taklifi asosida aniq va to'liq ma'lumotlar asosida yangi ish o'rinlarini yaratish;

- qishloq xo'jaligi mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlari, texnologiyalardan foydalanib, xalqaro me'yorlar asosida ishlab chiqilgan ilgarilovchi va kompleks ta'lim standartlaridan foydalanish;

- barcha darajadagi malakali kadrlar tayyorlash sifatini o'lchash va baholashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish hamda joriy qilish;

- qishloq tumanlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy iqtidorini har tomonlama qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish;

- shaxsni kasbga yo'naltirish va mehnat bozori talablari, imkoniyatlari va undagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisobga olib, qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning eng maqbul turini tanlashda yordam beradigan, shuningdek, iqtidorli yoshlarning qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlaydigan kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish;

- tarmoqli va mintaqaviy iqtisodiyot uchun integratsiyalashgan ta'lim muassasalari doirasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning salohiyatidan samarali foydalanish;

- qishloq joylarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning talab-ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi va darajasini shakllantirish;

- o'rta maxsus ma'lumotga ega kadrlar ichidan oliy kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashning shakl va usullarini kengaytirish;

- turli darajada ishlaydigan kadrlarni va ishdan bo'shagan mutxassislarni qayta tayyorlash hisobiga respublikaning raqobatbardosh kadrlar salohiyatini takror ishlab chiqarish;

- qishloq hududlari uchun barcha darajadagi kadrlarning malaka ta'riflarini mehnat bozori talablari shakllanmasdan oldin ishlab chiqish.

Yuqoridagi ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga mos kadrlarni tayyorlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Qishloq joylarda ish bilan bandlik munosabatlarini makrodarajada o'rganish mehnat bozorini tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadiki, bunda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish hamda ishchi kuchi samarali taklifini qo'llab-quvvatlashga ko'maklashishda ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlar alohida o'rin egallaydi. Taklif etilayotgan qishloq aholisining ish bilan bandligini oshirishning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarining elementlari qishloq joylarda ish bilan bandlik darajasini oshirish va ishsizlikni yo'l qo'yiladigan darajasigacha qisqartirishi imkonini beradi hamda qishloq aholisining ish bilan bandlik dasturlarini ishlab chiqishda muhim asos hisoblanadi.

Qishloq joylarda aholi ish bilan bandligini oshirish quyidagi samarali iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- milliy darajada: ishhaqining oshishiga yo'naltirilgan raqobatni kuchsizlantirish maqsadida yuqori daromadli firmalarning daromadini ushlab turish hamda nisbatan kam daromadli korxonalar va firmalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan soliq solishning yuqori darajasining o'rnatilishi; kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash; yangi ish o'rinlari sonini kengaytirish, ya'ni mehnatga bo'lgan talabni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va kreditlar berish; turmushni moddiy va uy-joy sharoitlarini yaxshilash shartlari bilan bo'sh ish joylari mavjud bo'lgan hududlarga ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan hududlardan oilasi bilan ko'chib o'tishga subsidiya va kreditlarni berish yo'li orqali ishchi kuchi kasbiy harakatchanligini oshirish; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hamda qayta ishlash sanoati sektorlarining asosiy mahsulotlariga davlat buyurtmasini belgilash; raqobatbardosh bo'lmagan qishloq ishchilarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; qishloq ishsizlarining kasbiy ta'lim darajasini oshirish, mehnat bozorida turg'un talab mavjud bo'lgan kasblarga o'qitish va qayta o'qitish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Valijonovich, R. S., Axmadjanovich, T. A., & Khoshimjon, Y. S. (2021). Causes and Consequences of Floods and Floods in The Safety of Life, Measures to Protect the Population and The Territory. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(1), 83-86.
2. Valijanovich, R. S., & Ahmadjanovich, T. A. (2021). CURRENT STATUS OF GROWING AND HARVESTING CORN AND CRUSHING COTTON. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1002-1006.
3. Turgunov, A. A., Yakubzhanova, Y. G., Yuldoshev Sh, K., & Mirzaliyev, Z. S. (2022). MAIZE, MAINTENANCE AND DEVELOPMENT OF WAYS TO OVERCOME DEFICIENCIES IN GROWTH FROM THE SUBSYSTE. *PEDAGOG.*-2022, 4, 953-959.
4. Yakutkhan, Y. Khoshimjon o'gli, YS (2022). Educate the Population on the Types and Causes of Emergencies. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(5), 22-26.
5. Khoshimjon, Y. S., & Mavludakhon, M. (2022). THE AMOUNT OF GRAIN LEAVING FROM THE CORE AND SHELL HOLE AND ITS REDUCTION. *Scientific Impulse*, 1(4), 371-374.

6. Gulomjonovna, Y. Y. Khoshimjon o'glu, YS (2021). CAUSES OF FLOOD AND FLOOD DAMAGE ALSO PREPARE TO DO THE RIGHT ACTION IN THIS EMERGENCY SITUATION. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(5), 158-161.
7. G'ulomjonovna, Y. Y. Xoshimjon o'gli, YS (2022). Influence of the Shape of the Working Surface of the Screed on the Grain Quality Mixture on the Performance of the Shell. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(2), 43-47.
8. Ahmadjanovich, T. A., Gulomzhanovna, Y. Y., Khoshimjon, Y. S., & Saidulla, M. Z. (2022). MAIZE, MAINTENANCE AND DEVELOPMENT OF WAYS TO OVERCOME DEFICIENCIES IN GROWTH FROM THE SUBSYSTEM. *PEDAGOG*, 1(4), 939-946.
9. Khoshimjon, Y. S., Turgunovna, A. S., & Umarjonovna, D. D. (2023). PREPARING THE POPULATION FOR PRACTICAL TRAINING ON CIVIL PROTECTION AND CONDUCTING IT. TRAINING THE POPULATION ON THE CONTENT OF POLITICAL-EDUCATIONAL ACTIVITIES AND PRACTICAL TRAINING CONDUCTED WITH THE UNITS OF CIVIL PROTECTION IN EMERGENCY SITUATIONS. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(15), 97-103.
10. Khoshimjon, Y. S., Olimjonovich, M. K., & Ibrahim, H. (2022). ASSESSMENT OF THE SEISMIC RESISTANCE OF BUILDINGS AND STRUCTURES AND METHODS OF CREATING ELECTRONIC TECHNICAL PASSPORTS. *Scientific Impulse*, 1(5), 163-166.
11. Khoshimjon, Y. S., & Olimkhan, I. I. (2022, December). GEOLOGICAL HAZARD EVENTS, EARTHQUAKES AND THEIR CONSEQUENCES. In *Proceedings of International Educators Conference (Vol. 3, pp. 546-557)*.
12. Khoshimjon, Y. S., & Nurmirza, M. M. (2023). EFFECTS OF HARMFUL AND TOXIC FACTORS OF PRODUCTION ON THE HUMAN BODY. *PEDAGOG*, 6(4), 476-483.
13. Атамирзаева, С. Т. (2023). ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ КОМФОРТ ШАРОИТЛАРИ, ИШЧИ ЎРНИНИ ЭРГОНОМИКАСИНИ ЎРГАНИШ ВА ЎҚИТИШ ТИЗИМИ. *PEDAGOG*, 6(4), 465-475.
14. Мамадалиев, Ш., & Юлдошев, Ш. (2021). СЕЛ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ ХАМДА ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 144-148.
15. Khoshimjon, Y. S., & Ravshanbek's, A. M. (2023). METHODS OF KEEPING CITIZENS IN PROTECTIVE FACILITIES RADIATION PROTECTION FACILITIES. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 587-592.
16. Xoshimjon o'g'li, Y. S. (2023). QISQA TUTASHUV NATIJASIDA ELEKTR QURLIMANING YONG 'INGA BARDOSHLILIK HISOBI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(4), 593-596.
17. Khoshimjon, Y. S. (2023). PROTECTION OF POPULATION AND FACILITIES FROM EMERGENCIES. *Scientific Impulse*, 1(9), 1261-1267.

18. G'ulomjonovna, Y. Y., & Khoshimjon, Y. S. (2023). CALCULATION OF LIGHTNING AND LIGHTNING ARRESTER AND FIRE PROTECTION SYSTEM IN FIRE PREVENTION. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 1108-1114.
19. Xoshimjon o'g'li, Y. S. (2023). ISHLAB CHIQUARISHDA QO'LLANILADIGAN MODDA VA MATERIALLARNING O'ZO 'ZIDAN YONISH SHART-SHAROITLARINI VA UNI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLARNI O'RGANISH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 1015-1022.
20. Xoshimjon o'g'li, Y. S. (2023). YONG'IN O'CHIRISHDA BINO INSHOOTLARNING ASOSIY KONSTRUKTIV ELEMENTLARINING YONG'INGA BARDOSHLILIK DARAJASI HISOBI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 1023-1030.
21. Omonaliyevych, O. B. (2023). CAUSES OF GLOBAL WARMING ON EARTH, FACTORS OF GLOBAL WARMING, CONSEQUENCES IN THE OCEAN, EFFECTS IN THE ATMOSPHERE. Научный Фокус, 1(1), 141-147.
22. Akmaljon, S. E., & Khoshimjon, Y. S. (2023). FACTORS DETERMINING FIRE SAFETY. Научный Фокус, 1(1), 148-152.
23. Zahidjon, A. (2023). DESCRIPTION, CLASSIFICATION OF EMERGENCY SITUATIONS. SCOPE OF EMERGENCIES OF NATURAL, TECHNOGENIC, ECOLOGICAL COLOR. PEDAGOG, 6(5), 575-582.
24. Khoshimjon, Y. S., & Murodjon, U. Z. (2023). TRAINING SYSTEM FOR RECEIVING EVACUATION (EVACUATION) IN EMERGENCY MODE. Научный Фокус, 1(1), 167-172.
25. Yuldoshev, S. K., & Ismatillakhan, K. M. (2023). GLOBAL CLIMATE CHANGE, CAUSES OF DEHYDRATION. Научный Фокус, 1(1), 153-158.
26. Shaxboz xoshimjon o'g'li, Y., & Shohjohon, U. (2023). TABIIY TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARNI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH TIZIMI BO'YICHA O'QITISH. Научный Фокус, 1(1), 159-166.
27. Khoshimjon, Y. S., & Ibrahimjon, N. I. (2023). THE MAIN CAUSES OF ENVIRONMENTAL DEGRADATION. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 1010-1014.
28. Khoshimjon, Y. (2023). CLASSIFICATION OF COMBUSTIBLE MATERIALS ACCORDING TO THE LEVEL OF FIRE RISK ACCORDING TO THE FIRE PRESSURE AND THE FUNCTIONAL FUNCTION OF BUILDINGS. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(10), 1004-1009.
29. Рахманов Ш. В. и др. АҲОЛИНИ СЕЛ ОҚИМИ ВА СУВ ТОШҚИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА ТЎҒРИ ҲАРАКАТ ҚИЛИШГА ТАЙЁРЛАШ ХАМДА ЎҚТИШ ТИЗИМИНИ ЙЎЛГА ҚЎЙИШ //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 205-211.
30. Khoshimjon, Y. S., & Nazirjan, R. Y. (2023). THE FIRST IDEAS ABOUT EARTHQUAKES, THE FIRST STEPS TAKEN TO AVOID THEM, AND THE INTERNAL STRUCTURE OF THE EARTH. Научный Фокус, 1(1), 1214-1223.

31. Khoshimjon, Y. S., & Farhodjon, A. S. (2023). INTERCONNECTION OF THE FIRE WARNING SYSTEM WITH TECHNOLOGICAL AND ELECTROTECHNICAL EQUIPMENT AND OTHER SYSTEMS IN BUILDINGS AND STRUCTURES. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(5), 124-131.
32. Khoshimjon, Y. S., & Akmaljon, T. A. (2023). CAUSES OF FLOOD FLOW AND FLOOD AND ITS DAMAGE FACTORS. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(5), 524-529.
33. Khoshimjan, Y. S., Nasirjon, Y. O., & Bakhromjon, M. B. Z. (2023). STUDY THE PROHIBITION OF WRONGFUL DENIAL OF EMPLOYMENT. PEDAGOG, 6(6), 63-73.
34. Kh, Y. S. (2023). PREPARING THE POPULATION FOR PRACTICAL COURSES ON CIVIL PROTECTION AND ITS CONDUCT AND TRAINING. Экономика и социум, (5-2 (108)), 493-498.
35. Khoshimjon, Y. S., & Kadirkhoja, E. S. (2023). PROVISION OF RELOCATION DURING EVACUATION, TRANSPORT AND ENGINEERING SUPPORT, MATERIAL AND TECHNICAL SUPPORT. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(5), 958-963.
36. Khoshimjon Y. S., Turgunovna A. S. STUDY OF UNITS OF MEASUREMENT OF RADIOACTIVITY, ACTIVITY, RADIATION DOSE //World of Science. - 2023. - Т. 6. - №. 10. - С. 1-8.
37. Shaxboz xoshimjon o'g'li Y., Shohjohon U. TABIIY TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARNI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH TIZIMI BO'YICHA O'QITISH //Научный Фокус. - 2023. - Т. 1. - №. 1. - С. 159-166.
38. Xoshimjon o'g'li Y. S. et al. ISHLAB CHIQRISHDA QO'LLANILADIGAN MODDA VA MATERIALLARNING O'ZO 'ZIDAN YONISH SHART-SHAROITLARINI VA UNI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLARNI O'RGANISH //Новости образования: исследование в XXI веке. - 2023. - Т. 1. - №. 10. - С. 1015-1022.
39. Xoshimjon o'g'li Y. S. et al. YONG 'IN O 'CHIRISHDA BINO INSHOOTLARNING ASOSIY KONSTRUKTIV ELEMENTLARINING YONG 'INGA BARDOSHLILIK DARAJASI HISOBI //Новости образования: исследование в XXI веке. - 2023. - Т. 1. - №. 10. - С. 1023-1030.
40. Xoshimjon o'g'li Y. S. et al. QISQA TUTASHUV NATIJASIDA ELEKTR QURLIMANING YONG 'INGA BARDOSHLILIK HISOBI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. - 2023. - Т. 6. - №. 4. - С. 593-596.
41. Юлдошев Ш. Х. Ў. Барабан айланишлар сонинг қобиқларни титилиш зонасидаги иш сифат кўрсаткичларига таъсири //Строительство и образование. - 2022. - №. 2. - С. 106-110.

42 Исабоева Д. С. и др. ЧИҚИНДИЛАРНИ ҚАЙТА ИШЛАШ МУАММОСИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ ТАХЛИЛИ //WORLD OF SCIENCE. - 2023. - Т. 6. - №. 11. - С. 50-56.

43. Зокиров С. С. и др. СИНТЕЗ БИОСТИМУЛЯТОРОВ НА ОСНОВЕ АРОМАТИЧЕСКИХ АМИНОСПИРТОВ ДЛЯ ВОДОСБЕРЕГАЮЩИХ КОМПОЗИТОВ //Scientific Impulse. - 2023. - Т. 1. - №. 9. - С. 1268-1274.